YERLAR DEGRADATSIYASIGA QARSHI KURASHISH: ZAMONAVIY YONDOSHUV, XALQARO HAMKORLIK, INNOVATSION YECHIMLAR



Unumdor tuproqlar insoniyat uchun havo va suv kabi muhim boylikdir. Yerlar degradatsiyasi - hozirgi va kelajak uchun tuproqning mahsuldorlik qobiliyatining yomonlashishi yoki yo‘qolishi - oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat narxining oshishi, iqlim o‘zgarishi, ekologik xavflar, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo‘qolishi orqali har bir insonga ta'sir qiladigan global muammodir. Yerning tanazzulga uchrashi daxshatli sur’atlar bilan sodir bo‘lishi, butun dunyo bo‘ylab ekin maydonlari va yaylovlar unumdorligining keskin pasayishiga olib keladi



Muammo jiddiy. Aynan shu kabi dolzarb masalalar mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlanishidagi asosiy xavflardan biri sanaladi.

Oxirgi yillarda tuproqlar tahdid ostida qolmoqda. Mamlakatimizda tuproq unumdorligi va sog’lig’ini saqlab qolish uchun siyosat va rag’batlar zarurligi haqida xabardorlik ortib, bu borada Prezident qaror va farmonlari imzolandi.



Rivojlangan davlatlar tajribalarini chuqur va har tomonlama o‘rganish, amaliyotga tadbiq etish ham yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish choralaridan biridir. Tuproqshunos olimlar yerlar degradatsiyasi – global muammoning ijobiy hal etish uchun ilmiy asoslarga ega chora-tadbirlar ustida bosh qotirishmoqda.

Shu ma’noda Yaqinda Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Jahon banki va Vageningen Akademiyasi o’rtasidagi xalqaro hamkorlik doirasida yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish sohasi mutaxassislaridan iborat delegatsiya Niderlandiyada «Tuproq laboratoriyasi bilimlari» (“Winter Course Soil Lab Skills”) qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida ham ishtirok etib qaytishdi.



Ushbu tashrifdan maqsad - qishloq xo‘jaligida tuproq unumdorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or davlatlar tajribasini o‘rganish, ilmiy-amaliy hamkorlikni yo‘lga

ISSN 2181-0826 1/2024 y.

qo‘yish, jumladan, innovatsion laboratoriya uskunalari, elektron xaritalarini yaratish, zamonaviy tahlil usullari va texnikasini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha tajriba almashishdan iborat.

Shu o‘rinda xalqaro hamkorlik asosidagi o‘quv malaka kurslaridan olingan yangi bilimlarni, metod va metodologiyalarni vazirlik tizimida olib boriladigan tuproq sohasidagi ilmiy – amaliy tadqiqotlar va izlanishlarga keng tadbiq etish ko‘zda tutilgan.

Ma’lumot tariqasida shuni aytish mumkinki, Niderlandiya qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha dunyoda AQSH dan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Eng rivojlangan oziq-ovqat sanoatiga ega. Foydalaniladigan yerlari katta bo‘lmagan hududdan iboratligiga qaramay u qishloq xo‘jaligida haqiqiy gigant hisoblanadi. Eng e’tiborli jihati shundaki, niderlandiyaliklar o‘z mamlakatlarini kichik, ammo har bir qarich yerini oltinga teng deb hisoblashar ekan.



Mamlakatimiz tuproqshunos olimlari qishloq xo‘jaligi yo‘nalishiga ixtisoslashgan Vageningen tadqiqotlar Universitetida malaka oshirish kurslarida qatnashdilar. Ushbu nufuzli ilm dargohida olimlar sohaga oid turli mavzulardagi taqdimot va ma’ruzalardan nazariy bilimlarini oshiribgina qolmay amaliy mashg‘ulotlar va tajribalardan ham boxabar bo‘lishdi.

Taqdimotlarda tuproq tahlillari aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan innovatsion texnologiyalar, yerlarda qo‘llaniladigan oziqa moddalari, tuproq unumdorligini monitoring qilish va boshqarish, ekinlar yetishtirishni optimallashtirish va atrof-muhitni ortiqcha o‘g‘itning oqishi va yuvilishi bilan ifloslanishdan himoya qilish, laboratoriya sharoitida tuproqda yashovchi jonzodlar bioxilmaxilligini mikroskopda aniqlash, organik monokultura va chiziqli ekinlar, tuproq salomatligini monitoring qilish va yerdan barqaror foydalanishni targ‘ib qilish, yer usti biologik xilma-xilligi yer osti biologik xilma-xilligiga qanday ta'sir qilishi, tuproqlardagi mikroplastiklar, ularni hisoblash manbalari transportlarni atrof-muhitga ta’siri kabi sohaga oid mavzular tinglandi.



Shuningdek olimlarimiz Skalar kompaniyasi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Skalar kompaniyasining shtab-kvartirasi Niderlandiyaning Breda shahrida joylashgan bo‘lib, u yerda 150 dan ortiq kishi ishlaydi. Bu yerda zamonaviy ishlab chiqarish va yig'ish ob’ektlari, jumladan, Ar-ge, Sifat nazorati, Ilovalar laboratoriyasi, Logistika, Savdo va Marketing va Xalqaro Yordam bo‘limi mavjud.



Skalar analizatorlarining yangi va mavjud assortimenti barcha laboratoriyalar uchun eng ishonchli va tejamkor ekanligi soha xodimlari e’tiborini o'ziga jalb etdi.



O‘zbek olimlarining Yevropa qit’asiga tashrifi sohada ko‘plab ilmiy tajribalarni mustahkamlash va yanada rivojlantirishga erishish kabi maqsadlardan iboratdir. Yana ana shunday eng katta maqsadlardan biri Butunjahon tuproq muzeyi bilan yaqindan tanishish va mamlakatimizda Markaziy Osiyo tuproq muzeyini tashkil etishdir.



ISRIC World Soil Information noyob World Soil ma’lumot to'plamining saqlovchisi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu monolit to‘plamidan tanlov Butunjahon tuproq muzeyida saqlanib namoyish etiladi. Muzeyning tuproq xaritalari bo‘limida ISRIC va hamkorlikdagi institutlar tomonidan ishlab chiqarilgan umumiy tuproq sinfi va tuproq mulki xaritalari ro‘yxati ham mavjud.



Tuproqlar hayot uchun asosdir. Ular bizni oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, ular suv ta'minoti, iqlim va biologik xilma-xillikni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.



Umuman olganda davlat taraqqiyoti qishloq xo‘jaligi tizimining mukammal rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Bu esa soha olimlarining izlanishlari shiddatiga ham bevosita bog’liqdir. Shunday ekan, bu boradagi innovatsion ishlanma va yangiliklarga ehtiyoj ham har qachongidanda oshib boraveradi.

Jurnalist,
Akbar XUDOYQULOV

ISSN 2181-0826 1/2024 y.